

Использованные источники

1. Falode A. Ja. Small Arms and Light Weapons (SALW) and Transnational Crime in Africa // Vestnik RUDN. International Relations. 2020. Vol. 20. № 1. P. 158-169.
2. В Узбекистане усиливается борьба с незаконным оборотом оружия // <https://yuz.uz/index.php/ru/news/v-uzbekistane-usilivaetsya-borba-s-nezakonnym-oborotom-oruziya>.
3. Фалалеев М. На Ставрополье задержана вооруженная банда // Российская газета. 2021. 20 авг.
4. Денисенко Е.А. Нелегальная торговля оружием // Международная научно-техническая конференция молодых ученых БГТУ им. В.Г. Шухова: Материалы конф. (Белгород, 30 апреля 2021 г.) Белгород: Белгородский гос. технолог. ун.-т им. В.Г. Шухова, 2021. С. 288-293.
5. Ростовская Т. К., Безвербная Н.А. Особенности и тенденции женской преступности в России // Социальное пространство. 2021. Т. 7. № 1. С. 1-13.
6. Скоропупов Ю.И. Проблемные вопросы причин и условий, способствующих совершению незаконного оборота оружия, его основных частей, боеприпасов, взрывчатых веществ и взрывных устройств // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. 2015. № 4. ч. 2. С. 255-263.
7. Противодействие незаконному обороту оружия в России: Сб. материалов круглого стола / Редколлегия Р.В. Жубрин, О.А. Евланова. М.: Ун-т прокуратуры Российской Федерации, 2020. 148 с.
8. Манахов С.А. «Черный рынок» оружия // Закон и право. 2003. № 11. С. 68-69.
9. White R. Depleted uranium, state crime and the politics of knowing // Theoretical Criminology. 2008. Vol. 12. № 1. P. 31-54.
10. Робак В.А. Криминологическая характеристика личности преступника, совершившего преступления в сфере незаконного оборота оружия // Известия Юго-Западного государственного университета. 2017. № 3(72). С. 141-147.
11. Готчина Л.В., Кокин Д.М. Некорыстный оборот оружия М.: Юрлитинформ, 2017. 152 с.
12. Шмидт А.А. Программы обратного выкупа оружия в структуре лицензионно-разрешительной политики государства // Правопорядок: история, теория, практика. 2021. № 2(29). С. 34--2.
13. Сургутсков В. И., Гоман О.С. Организация деятельности территориальных органов МВД России и Росгвардии по реализации полномочий, связанных с приемом у населения оружия, боеприпасов и иных видов вооружения, находящихся в незаконном обороте // Полицейская и следственная деятельность. 2020. № 3. С. 40-51.
14. Крапивин Р. Р. Исследования скрытой сети Darknet // Приоритетные направления инновационной деятельности в промышленности: Сб. науч. статей по итогам десятой междунар. науч. конф., Казань, 30-31 октября 2020 г. Казань: КОНВЕРТ, 2020. С. 61-62.
15. Дубоносов Е.С., Скоропупов Ю.И. К вопросу о криминологической характеристике незаконного оборота оружия // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки. 2015. № 4. ч. 2. С. 33-41.

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI: HOLATI, TENDENSIYALARI VA PROFILAKTIK AHAMIYATI



NAZAROVA

Laylo Geldimuradovna

O'zbekiston Respublikasi

Kriminologiya tadqiqot instituti yetakchi ilmiy xodimi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi, uning ijtimoiy-huquqiy mohiyati, shakllanish omillari hamda zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning sabab va shart-sharoitlari, oila, ta'lim muassasalari, mahalla hamda axborot makonining ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Maqolada profilaktika chora-tadbirlarini takomillashtirish, individual yondashuvni kuchaytirish hamda "oilata'lim-mahalla" integratsiyasi modelini rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, jinoyatchilik, kriminologik tavsif, profilaktika, deviant xulq, ijtimoiy muhit, huquqbuzarlik, viktimologik omillar, individual profilaktika.

Аннотация. В данной научной статье проведён комплексный криминологический анализ преступности несовершеннолетних, её социально-правовой природы, факторов формирования и современных тенденций развития. Исследованы причины и условия совершения правонарушений и преступлений несовершеннолетними, а также научно освещено влияние семьи, образовательных учреждений, махалли и информационного пространства. В статье разработаны предложения и практические рекомендации по совершенствованию мер профилактики, усилению индивидуального подхода и развитию интеграционной модели «семья - образование - махалля».

Ключевые слова: несовершеннолетние, преступность, криминологическая характеристика, профилактика, девиантное поведение, социальная среда, правонарушение, виктимологические факторы, индивидуальная профилактика.

Abstract. This scientific article provides a comprehensive criminological analysis of juvenile delinquency, its socio-legal nature, formation factors, and contemporary trends. It scientifically examines the causes and conditions of offenses and crimes committed by minors, along with the influence of the family, educational institutions, the mahalla (local community), and the information environment. The article develops constructive proposals and practical recommendations aimed at improving preventive measures, strengthening individual approaches, and enhancing the integration model of "family-education-mahalla".

Keywords: juveniles, crime, criminological characteristics, prevention, deviant behavior, social environment, offense, victimological factors, individual prevention.

Jahonda globallashuv, axborot texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlar transformatsiyasi hamda turli destruktiv g'oyalar voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning yangidan-yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, Internet, ijtimoiy tarmoqlar, virtual muhit

hamda axborot xavfsizligi bilan bog'liq muammolar yoshlar xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi har qanday davlatda jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy va huquqiy barqarorligiga tahdid soluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat nafaqat huquqiy

munosabatlarga, balki kelajak avlodning ijtimoiy tarbiyasi va jamiyatdagi ijtimoiylashuv jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularni ijtimoiy himoya qilish, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Shu nuqtayi nazardan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifini chuqur tahlil qilish, uning shakllanish omillarini aniqlash va samarali profilaktik mexanizmlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kriminologiya fanidan ma'lumki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi deganda, jinoyat qonunida belgilangan yoshga to'lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar yig'indisi tushuniladi. Ushbu turdagi jinoyatchilik umumiy jinoyatchilikning alohida turi sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o'ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jinoyat subyektlarining psixofiziologik xususiyatlari;
- shaxsning to'liq shakllanmaganligi;
- emotsional beqarorlik;
- tashqi muhit ta'siriga tez beriluvchanlik;
- kattalar ta'siriga moyillik;
- ijtimoiy nazorat mexanizmlarining yetarlicha shakllanmaganligi.

Kriminologik nuqtayi nazardan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning o'ziga xos indikatori hisoblanadi. Chunki mazkur toifadagi huquqbuzarliklar ko'p hollarda oilaviy muammolar, ma'naviy bo'shliq, ta'lim tizimidagi kamchiliklar, ishsizlik, nazoratsizlik va nosog'lom ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi kelgusida retsidiv jinoyatchilik shakllanishiga ham zamin yaratishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, katta yoshdagi ko'plab jinoyatchilar o'z faoliyatini aynan o'smirlik davrida boshlagan.

Kriminologik tahlilda jinoyatchilikning holati, darajasi, dinamikasi, tuzilishi va geografiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining holati muayyan vaqt mobaynida qayd etilgan jinoyatlar soni bilan ifodalanadi. Jinoyatchilik darajasi esa aholi soniga nisbatan aniqlanadi.

Amaliyot tahlillari shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar orasida:

- o'g'rilik;
- talonchilik;
- bezorilik;
- tan jarohati yetkazish;
- giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar;
- kiberjinoyatchiliklarda ishtirok etish holatlari nisbatan ko'proq uchraydi.

So'nggi yillarda axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida Internet orqali sodir etiladigan huquqbuzarliklar, onlayn firibgarlik, kiberbulling va virtual tahdidlar ham o'smirlar ishtirokida sodir etilayotgan jinoyatlar qatoriga kirmoqda.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi dinamikasi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat, tarbiyaviy muhit, huquqiy madaniyat darajasi va profilaktika tizimi samaradorligiga bog'liq holda o'zgarib boradi.

Iqtisodiy qiyinchiliklar, migratsiya jarayonlari, oilaviy ajrimlar, ishsizlik va ma'naviy inqiroz holatlari o'smirlar jinoyatchiligi o'sishiga olib keluvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan profilaktika ishlarining kuchaytirilishi, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, sport va madaniy tadbirlarga jalb qilish jinoyatchilikning pasayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi tarkibida mulkiy jinoyatlar yetakchi o'rinni egallaydi. Bu holat, asosan, moddiy ehtiyojlar, yengil yo'l bilan daromad topish istagi va nosog'lom muhit ta'siri bilan izohlanadi [1].

Shuningdek, guruh bo'lib jinoyat sodir etish holatlari ham yuqori ulushni tashkil etadi. O'smirlar ko'pincha tengdoshlar ta'sirida, o'zini ko'rsatish yoki guruhda mavqe qozonish maqsadida jinoyat sodir etadilar.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi shaharlashuv darajasi yuqori bo'lgan hududlarda nisbatan ko'proq kuzatiladi. Bu holat shahar muhitida ijtimoiy nazoratning susayishi, Internet va axborot ta'sirining kuchliligi, turli norasmiy guruhlar faoliyati bilan bog'liq.

Biroq qishloq hududlarida ham mehnat migratsiyasi, ota-onalar nazoratining susayishi va ta'limdan chetlashish holatlari o'smirlar o'rtasida huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Voyaga yetmagan jinoyatchilar shaxsini o'rganish kriminologiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki jinoyatning oldini olish uchun, avvalo, uni sodir etuvchi shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish zarur [2].

Voyaga yetmagan jinoyatchilarga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy xususiyatlar: nosog'lom oila muhiti; ota-ona nazoratining yetishmasligi; ta'lim muassasalari bilan uzviy aloqaning yo'qligi; ishsizlik yoki o'qishdan chetlashish; salbiy muhit ta'siri.

Psixologik xususiyatlar: emotsional beqarorlik; agressivlik; ta'sirchanlik; o'z harakatlarining oqibatini to'liq anglamaslik; mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining yetarlicha shakllanmaganligi.

Axloqiy xususiyatlar: huquqiy ongning pastligi; axloqiy qadriyatlarining yetarlicha shakllanmaganligi; mas'uliyat hissining sustligi; ijtimoiy me'yorlarga nisbatan befarqlik.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmagan jinoyatchilarning aksariyati noto'liq yoki nizoli oilalarda tarbiyalangan bo'ladi. Ayrim holatlarda esa ota-onalarning spirtli ichimliklarga ruju qo'yishi, oiladagi zo'ravonlik yoki ma'naviy muhitning nosog'lomligi o'smirning deviant xulq shakllanishiga olib keladi.

Jinoyatchilikning kelib chiqishida sabab va shart-sharoitlarning o'zaro bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid soluvchi ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri hisoblanadi. Uning kelib chiqishiga oilaviy muhit, ta'lim tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, axborot makoni va ma'naviy tarbiya bilan bog'liq qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tahlillarga ko'ra, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishiga *quyidagi omillar* ta'sir ko'rsatmoqda:

Oilaviy omillar. Oila shaxs tarbiyasida asosiy instituti hisoblanadi. Oiladagi nosog'lom muhit, ajrimlar, nizolar, mehr-e'tiborning yetishmasligi, farzand tarbiyasiga befarqlik [3] kabi holatlar o'smir shaxsida salbiy xususiyatlarni shakllantiradi. Ota-onalarning farzand tarbiyasiga mas'uliyatsiz

munosabati, ularning bo'sh vaqtini nazorat qilmasligi ham jinoyatchilikka olib keluvchi muhim omillardan biridir.

Ta'lim muassasalari bilan bog'liq omillar. Maktab va ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar samaradorligining pastligi, pedagogik nazoratning yetarlicha emasligi, o'quvchilarning dars qoldirishi yoki ta'limdan chetlashishi huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga zamin yaratadi.

Ayniqsa, ta'lim muassasasi va ota-ona o'rtasidagi hamkorlikning susayishi o'smirning ijtimoiy nazoratdan chetda qolishiga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Kambag'allik, ishsizlik, migratsiya, ijtimoiy tengsizlik, moddiy ehtiyoj ham o'smirlar jinoyatchiligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi [4; 9].

Ayrim holatlarda o'smirlar moddiy manfaat orttirish maqsadida yoki kattalar ta'sirida jinoyat sodir etadilar.

Axborot muhiti ta'siri. Internet tarmog'idagi zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlar, agressiv kompyuter o'yinlari, destruktiv g'oyalar, kiberbulling va virtual muhitdagi salbiy ta'sirlar ham o'smirlar xulqiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot xavfsizligining yetarlicha ta'minlanmaganligi ham voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining yangi shakllarini keltirib chiqarmoqda.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining profilaktikasi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda kompleks va tizimli yondashuv muhim ahamiyatga ega [5].

Umumiy profilaktika jamiyatda huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan. Bunda: aholi turmush darajasini yaxshilash; yoshlar bandligini ta'minlash; ta'lim sifatini oshirish; huquqiy madaniyatni yuksaltirish; sport va madaniy tadbirlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Maxsus profilaktika huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan maqsadli ishlashni nazarda tutadi. Ushbu profilaktikada: profilaktik hisob; psixologik yordam; ijtimoiy reabilitatsiya; individual tarbiyaviy choralar; oila bilan ishlash; ta'lim muassasalari bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Individual profilaktika muayyan voyaga yetmagan shaxsning shaxsiy xususiyatlari, yashash muhiti va xulq-atvoridan kelib chiqqan holda

amalga oshiriladi. Bu borada profilaktika inspektorlari, psixologlar, pedagoglar, mahalla faollari va ota-onalarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega [6].

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda “oila-ta’lim-mahalla” hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi [7;8].

Ushbu model doirasida: oilalar bilan manzilli ishlash, maktablarda huquqiy tarbiyani kuchaytirish, mahalla institutining tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yoshlarning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ijtimoiy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Kriminologik tahlil shuni ko’rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga quyidagilar:

- ✓ ota-onalarning farzandlarining o’smirlik davri (yoshi)da o’ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari va mashg’ulot turidan kelib chiqib, alohida ta’lim-tarbiya berish usullarini bilmasliklari;
- ✓ ota-onalar o’z ish faoliyatlari bilan mashg’ul bo’lib, farzandlari tarbiyasini o’z holiga tashlab qo’yganliklari;
- ✓ ota-onalar farzandlarining darsdan bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga ko’maklashmayotganliklari;
- ✓ bolaning nosog’lom (nizoli, ijtimoiy-ma’naviy muhiti buzilgan, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik shakllangan) oilada yashab kelganligi;

Foydalanilgan manbalar

1. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2025.
2. O’zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to’g’risida”gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami.
3. O’zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-mayda qabul qilgan “Voyaga yetmaganlar o’rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning nazoratsizligini bartaraf etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-183-son qarori.
5. Ismailov I., Qo’ldoshev A. Kriminologiya: Darslik. – T.: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020. – 320 b.
6. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуқи курси. 5-том: Жазо ва уни тайинлаш. Вояга етмаганлар жавобгарлиги хусусиятлари. – Т.: Илм-зиё, 2018.
7. Закирова М. Вояга етмаганлар жиноятчилигининг олдини олишда маҳалла институтининг роли // Ҳуқуқ ва бурч, 2022. – №4. – Б. 45–50.
8. Долгова А.И. Криминалогия: Учебник для вузов. – М.: Норма, 2019. (Глава: Преступность несовершеннолетних).
9. Shoemaker, D. J. (2020). Theories of Delinquency: An Examination of Explanations of Delinquent Behavior. Oxford University Press.

- ✓ ota-onaning farzandi tarbiyasiga salbiy ta’siri;
- ✓ ota-onaning voyaga yetmagan farzandini qoldirib, uzoq muddatga ketganligi, bolaning nazoratsiz qoldirilganligi;
- ✓ og’ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki mushkul ahvolda bo’lganligi, o’zaro kelishmovchiligi bo’lganligi;
- ✓ ilgari jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxsning axloqan tuzalmaganligi (2 ta holatda muqaddam sudlanganlar tomonidan jinoyat sodir etilgan);
- ✓ yangi muhitda muloqot qilishda psixologik to’siqning mavjudligi, o’z-o’zini hurmat qilishning pasayishi, depressiya holatlari;
- ✓ ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib borilayotgan axloqsiz va notarbiyaviy kontentlarning salbiy ta’siri;
- ✓ televideniya namoyish qilib borilayotgan aksariyat ko’rsatuv va seriallardagi yengil hayot kechirishni targ’ib qiluvchi g’oyalarning voyaga yetmaganlar xulq-atvoriga salbiy ta’siri;
- ✓ maktablarda tarbiyasi og’ir o’quvchilar bilan ishlashda mavjud muammolar;
- ✓ maktab o’quvchilarining huquqiy savodxonligi yo’qligi, o’zi tomonidan amalga oshirilayotgan qonunga zid (tanishiga tan jarohati yetkazish, haqorat qilish va h.k.) xatti-harakatlarning huquqiy oqibatini anglamasligi sabab bo’lmoqda.

MAHALLALARDA JAMOAT TARTIBINI TA’MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI: TIZIMLI-KRIMINOLOGIK TAHLIL



BOLIYEV
Umar Usmonovich
O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada O’zbekiston Respublikasida mahalla institutining jamoat tartibini ta’minlash va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasidagi huquqiy asoslari tizimli-kriminologik yondashuv asosida o’rganilgan. 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohot, 2024-yilda “Mahalla yettiligi” institutining huquqiy tartibga solinishi va 2025 va 2026-yillarda qabul qilingan PQ-1-sonli qarorlarni qiyosiy-huquqiy tahlil qilish orqali mahallaning davlat-jamoat tizimidagi huquqiy tabiati asoslantirilgan. Rasmiy statistik ko’rsatkichlar va amaliy keyslar asosida institutsional islohotning kriminologik samaradorligi baholangan. Qonunchilikni takomillashtirishga oid mualliflik takliflari “mahalla yettiligi” to’g’risidagi maxsus qonun loyihasi, ma’muriy-yurisdiksiyon vakolatlarni kengaytirish va jamoatchilik-yuridik nazoratni mustahkamlash yo’nalishlarida ilgari surilgan.

Kalit so’zlar: mahalla, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, jamoat tartibi, huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi, “mahalla yettiligi”, profilaktika inspektori, kriminogen vaziyat, gibrid huquqiy institut.

Аннотация. В статье на основе системно-криминологического подхода исследованы правовые основы деятельности института махалли в обеспечении общественного порядка и ранней профилактике правонарушений в Республике Узбекистан. Посредством сравнительно-правового анализа конституционной реформы 2023 года, регламентации института «махаллинской семёрки» в 2024 году и Постановлений Президента ПП-1 от 2025 и 2026 г.г. обоснована государственно-общественная правовая природа махалли. На основе официальной статистики МВД и прикладных кейсов оценена криминологическая эффективность институциональной реформы. Сформулированы авторские предложения по совершенствованию законодательства: разработка специального закона о «семёрке махалли», расширение административно-юрисдикционных полномочий и укрепление общественно-правового контроля.

Ключевые слова: махалля, органы самоуправления граждан, общественный порядок, ранняя профилактика правонарушений, семёрка махалли, инспектор профилактики, криминогенная обстановка, гибридный правовой институт.

Abstract. The article, applying a systemic-criminological approach, examines the legal foundations of the mahalla institution in maintaining public order and ensuring early prevention of offences in the Republic of Uzbekistan. Through comparative-legal analysis of the 2023 constitutional reform, the formalisation of the «mahalla seven» institution in 2024, and Presidential Resolution PR-1 of 2025, 2026 the state-public legal nature of the mahalla is substantiated. Based on official statistics of the Ministry of Internal Affairs and applied case studies, the criminological effectiveness of the institutional reform is assessed. The author advances proposals for legislative improvement in the areas of: a special law on the «mahalla seven», expansion of administrative-jurisdictional powers, and strengthening of public-legal oversight.

Key words: mahalla, citizens’ self-government bodies, public order, early crime prevention, mahalla seven, prevention inspector, criminogenic situation, hybrid legal institution.